



## NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XORIJ TAJRIBASI

*Xakimov Sanjar Rustam o'g'li -  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nodavlat notijorat tashkilotlari buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari, bunda xorij tajribasining ilg'or yondoshuvlari va samarali tajribasi haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari mamlakat ijtimoiy hayotida nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati hamda mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni ham tahlil qilingan. Qolaversa, nodavlat notijorat tashkilotlarining buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlash va tegishli organlarga taqdim qilish amaliyoti haqida ham mulohazalar bayon qilingan, nodavlat notijorat tashkilotlari uchun xarajatlar, dasturiy vazifalarni amalga oshirish bilan amalga oshiriladigan hamda saqlash xarajatlari bo'yicha xorijiy tajriba asosida shakllantirilgan hisobot shakllari to'g'risida takliflar ilgari surilgan. Yakunda, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini buxgalteriya hisobining xorij tajribasi asosida rivojlantirish istiqbollari va xulosalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** nodavlat notijorat tashkilot, xalqaro standard, nodavlat sektor, ishchi kuchi, yalpi ichki mahsulot, moliyaviy hisobot, funksional xarajat, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, taqqoslanuvchanlik, izchillik, byudjet.

## ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ УЧЕТА В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

*Хакимов Санжар Рустам угли -  
Ташкентский международный университет Кимё*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются особенности бухгалтерского учета негосударственных некоммерческих организаций, передовые подходы и эффективный опыт зарубежного опыта. Кроме того, также было проанализировано значение неправительственных некоммерческих организаций в общественной жизни страны и их роль в экономике страны. Кроме того, приведены комментарии по практике составления бухгалтерской отчетности неправительственных некоммерческих организаций в соответствии с международными стандартами и представления ее в соответствующие органы, формы отчетности для неправительственных некоммерческих организаций, реализуемые с внедрением программных задач и на основе зарубежного опыта по затратам на хранение выдвинуты предложения. В конце даны перспективы и выводы развития деятельности негосударственных некоммерческих организаций на основе зарубежного опыта бухгалтерского учета.

**Ключевые слова:** негосударственная некоммерческая организация, международный стандарт, неправительственный сектор, рабочая сила, валовой внутренний продукт, финансовая отчетность, функциональная стоимость, отчет о движении денежных средств, сопоставимость, последовательность, бюджет.

## FOREIGN EXPERIENCE OF ACCOUNTING IN NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS

**Khakimov Sanjar Rustam ugli -**  
Kimyo International University in Tashkent

**Annotation.** This article discusses the features of accounting for non-governmental non-profit organizations, advanced approaches and effective experience of foreign experience. In addition, the importance of non-governmental non-profit organizations in the public life of the country and their role in the country's economy was also analyzed. In addition, comments are given on the practice of compiling accounting reports of non-governmental non-profit organizations in accordance with international standards and submitting them to the relevant authorities, reporting forms for non-governmental non-profit organizations implemented with the introduction of program objectives and based on foreign experience in storage costs, proposals were put forward. At the end, prospects and conclusions are given for the development of the activities of non-governmental non-profit organizations based on foreign experience in accounting.

**Key words:** non-governmental non-profit organization, international standard, non-governmental sector, labor force, gross domestic product, financial statements, functional cost, cash flow statement, comparability, consistency, budget.

### Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning turli shakllarga asoslangan korxonalar va tashkilotlar o'zlarining faoliyatlarini olib borishadi. Aynan, ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ichida nodavlat notijorat tashkilotlarining o'ziga xos o'rni bor. Chunki, nodavlat notijorat tashkilotlarida amalga oshiriladigan xo'jalik muomalalarining buxgalteriya hisobida xorij tajribasiga asosan yuritilishi va hisobda aks ettirish boshqa subyektlarga nisbatan farq qiladi.

Shu sababdan ham mamlakat ijtimoiy hayotida nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy-siyosiy ahamiyati, balki, qolgan jabhalarda ham o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Bunda albatta, ularning faoliyati hisob qonunchiligiga asosan to'g'ri va shaffof yuritilishi, bunda, xorijiy tajribadan foydalangan holda hisob tamoyillariga asosan xo'jalik muomalalarining aks ettirilishi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning jahon hisob andozalariga nisbatan muvofiqlashishiga va buning natijasida ularning faoliyat doirasining kengayishiga sabab bo'ladi.

Barchamizga ma'lumki, o'tgan asrning so'ngi choragida nodavlat sektorining tezlikda kengash tendensiyasini kuzatishimiz mumkin. Ularning soni ham kundan-kunga ortib bormoqda. Dunyo bo'yicha bugungi kunda 10 milliondan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) mavjud.<sup>25</sup>

Birgina misol sifatida, NNTlari dunyo bo'ylab ishchi kuchining 7,4 foizini ish bilan ta'minlashining o'zi katta ko'rsatkich hisoblanadi. Xalqaro NNTlar xodimlarining 70 foizi haq to'lanadigan ishchilar, 29 foizi esa ko'ngillilardir<sup>26</sup>.

Dunyo bo'yicha nodavlat notijorat bo'g'inining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ham ortib bormoqda. Bu Vengriyada 2,8 foizni, Kolumbiyada 2,1 foizni, Niderlandiyada 15,8 foizni, AQShda 7,5 foizni tashkil etadi. Shu bois davlat tomonidan NNTlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash turli davlatlarda turlicha. Davlatni NNTlarni qo'llab-quvvatlash salmog'i Belgiyada 76,5 foizni, Niderlandiyada 59,0 foizni, AQShda 30,5 foizni, Sharqiy va Markaziy Yevropada 20-40 foizni tashkil etadi<sup>27</sup>. Shu bilan birgalikda ular o'z faoliyatlari yuzasidan buxgalteriya hisobini yuritadi va hisobotlarini tayyorlaydilar va tegishli davlat tashkilotlariga taqdim etadi.

Bundan tashqari, jamiyat rivojida NNTlarining o'rni ortib borar ekan, ularning Hukumat va boshqa davlatning ijro organlari bilan munosabatlari izchil va ikki tomonlama manfaatli bo'lishi talab etiladi. "Davlat sektori korxonalarini tomonidan turli faoliyat sohalari o'rtasida resurslarni taqsimlashda mamlakat aholisining asosan bir qismi (masalan, saylovchilarning ko'pchiligi) aks ettiriladi. Biroq, shu bilan birgalikda moliyalashtirishga tayyor bo'lgan aholi guruhlari ham mavjudki, ular xayriya faoliyatini Hukumatga nisbatan, ya'ni, davlat tashkilotlariga qaraganda ko'proq amalga oshiradi. Buning natijasida

<sup>25</sup> <https://www.zippia.com> rasmiy ijtimoiy tarmoq ma'lumotlari

<sup>26</sup> <https://www.zippia.com> rasmiy ijtimoiy tarmoq ma'lumotlari

<sup>27</sup> <http://www.socpolitika.ru> rasmiy ijtimoiy tarmoq ma'lumotlari

mamlakatda ijtimoiy hayotning turli jabhalarida uchuinchi sektor tashkilotlarining o'rnini va roli ortib boradi. Shu ma'noda, NNTlar davlatning jamoatchilik bilan bog'liq faoliyatini to'ldiruvchi sifatida gavdalanadi va ularning o'rnini davlat sektori (tashkilotlar) bosa olmaydi" (William Jack, 2001).

### Adabiyotlar sharhi.

Istli va O'Xara (1983): E'tibor qaratadigan bo'lsak, davlat organlari va aholining turli guruhlari o'rtasidagi siyosiy qarashlarda biroz farqlanishlar mavjud. Bunda asosiy urg'u daromadlarni taqsimlashda namoyon bo'ladi. Sababi, jamiyat a'zolari o'rtasida ijtimoiy foydali faoliyatning barcha yoki ayrim turlarini yetarli darajada moliyalashtirmaydi, deb hisoblaydiganlar ham topiladi. Ko'ngilli bo'lgan aholi guruhlari esa avvalo barcha uchun manfaatdor bo'lgan dasturlarni amalga oshirishga o'zlarining mablag'larini yo'naltirishni istaydilar. Bu mablag'lar davlat byudjeti orqali qayta taqsimlash doirasida taqdim etish mumkin emas.

Huddi shu sababga ko'ra tijorat tashkilotlari bunday faoliyatlarni amalga oshira olishmaydi. Ularning asosiy maqsadi esa maksimal darajada foyda olish hisoblanadi. Shundan, davlat sektorining NNTlar bilan shartnoma tuzish bilan faoliyat yuritishi tijorat tashkilotlari bilan shartnoma tuzishdan ko'ra samaraliroq hisoblanadi. Ushbu muammoli masalani Istli va O'Xara (1983) tomonidan o'rganilgan. Ushbu olimlar birgalikda o'yin nazariyasi modellarini ishlab chiqqan hamda NNTlar bilan davlat sektori faoliyati o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni samaradorligini o'rganib o'tganlar va "muayyan sharoitlarda NNTlari ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda eng maqbul mexanizm hisoblanadi, ularning afzalliklarini kuzatish yoki o'lchash qiyin" (Eastley, O'Hara, 1983) deb ta'kidlab o'tganlar.

Jumaboyev (2022) Yoshlar tashkilotlarining moliyalashtirish bo'yicha o'zining takliflarini ilgari surgan. Xususan, Belgiya, Italiya, Ispaniya, Avstraliya, Norvegiya, Belorusiya, Kanada, AQSH, Chexiya, Finlandiya, Indoneziya, Latviya, Peru, Rossiya, Qirg'iziston davlatlari misolida hisob va tahlil ishlarini keltirib o'tgan. Yoshlar tashkilotlarining asosiy salmog'i tashkiliy huquqiy shakliga ko'ra nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanganligi sababli O'zbekiston yoshlar ittifoqi nodavlat notijorat tashkiloti va boshqa xorijiy davlatlarning nufuzli nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyalashtirish amaliyoti haqida batafsil fikrlarni bayon etgan va takliflarini ilgari surgan. Maqsadli, bozor qoidalari va aralash shakldagi xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib uch mezonli moliyalashtirishni amalga oshirish yo'nalishlari ilgari surilgan. Moliyalashtirishning maqsadli va mustaqil mablag'larni jalb qilish orqali O'zbekistonda NNTlarning byudjetga qaramlikdan chiqish va mustaqil ravishda o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish, bu orqali, moliyaviy mustaqil tashkilotga aylanishlariga ko'maklashishga erishishni aytib o'tgan.

O. Ne'matov tomonidan NNTlari aktivlari hisobi va hisobotini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalarini ko'rib chiqqan. Moliyaviy hisobotning xalqaro konseptual asoslari va milliy konseptual asoslarida aktivlarning mohiyati nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Xalqaro standartlarga<sup>28</sup> muvofiq, aktivlarni buxgalteriya balansida tan olinishi uchun (a) u bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy nafning olinishi yoki yo'qotilishi ehtimoli amal qiladi; (b) obyekt qiymat yoki bahoga ega bo'ladi, qaysiki u ishonchli o'lchanilishi mumkin. Xalqaro standartlarda aktivlarni qisqa muddatli deb tan olishning mezonlari ham berilgan. Qisqa muddatli aktivlar mezonlariga javob bermaydigan aktivlar uzoq muddatli aktivlar deb tan olinadi. Sohaga doir manbalarda mol-mulk tushunchasiga ham aniqlik kiritilgan. Moddiy ko'rinishdagi mol-mulklarga quyidagi aktivlar kirishi qayd qilingan<sup>29</sup>: asosiy vositalar; investitsiyaviy mulk; sotish uchun mo'ljallangan deb tasniflangan oborotdan tashqari aktivlar; zaxiralar. Boronov (2020) buxgalteriya balansida moliyaviy aktivlarni, jumladan investitsiyalarni hissali qatnashish metodi asosida baholab aks ettirish hamda debitorlik qarzlarni savdo va nosavdo debitorlik qarzlarga ajratishni taklif etadi. Lekin, ushbu ishda investitsiyalar va debitorlik qarzlarning tarkibi xalqaro standartlarga muvofiq to'liq shakllantirilmagan. Ochilov, Raxmatovalar (2020) NNTlarda hisob siyosatida keltiriladigan asosiy unsurlarda "aktivlar va majburiyatlarni baholash usullari"ga ahamiyat qaratishgan. Robert va Riket (2018) tomonidan xalqaro jurnalda chop ettirilgan maqolasida GAAP va IFRS standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni taqdim etish masalalari o'rganilgan. Tashnazarov (2018) tomonidan mulk, bino, mashina va asbob-uskunalarini buxgalteriya balansida aks ettirishning tartib qoidalarini tadqiq etgan.

<sup>28</sup> Признание активов согласно МСФО. <https://www.klerk.ru/buh/articles/97184/>

<sup>29</sup> Признание и классификация активов в соответствии с МСФО <https://finotchet.ru/articles/590/>

### Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishida falsafa, iqtisodiy tahlil hamda boshqa fanlarning induksiya, deduksiya, qiyoslash, balans, guruhlash metodlaridan foydalanilgan.


### Tahlil va natijalar muhokamasi.

NNTlari o'z faoliyati yuzasidan moliyaviy hisobot shakllarini buxgalteriya hisobining tamoyillari va tartiblariga rioya qilgan holda tayyorlaydilar. NNTlarining buxgalteriya hisobida shakllantirilgan va moliyaviy hisobotlarda e'lon qilingan ma'lumotlar, birinchi navbatda, notijorat tashkilotlarining moliyaviy ahvoli hamda faoliyat natijalari to'g'risida jamoatchilikni (donor tashkilotlar, potesial investorlar, xizmatlar iste'molchilari) muntazam ravishda xabardor qilish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari jamoatchilik nazorati nazorat qiluvchi va soliq organlarining notijorat tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan harakatlarni to'ldiradi, ya'ni, moliyaviy hisob va hisobotlarni yuritish tamoyillari va tartiblarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

NNTlari faoliyatida buxgalteriya hisobi boshqa tashkilotlardan farq qiladi, chunki NNTlarining aksariyati soliq qonunchiligi bo'yicha qator majburiyatlardan ozod etilishini dunyo mamlakatlari amaliyotida ko'rishimiz mumkin. "NNTlar faoliyati ko'pincha Hukumatning qator loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan. Shundan kelib chiqib, NNTlari faqatgina mablag'larini jamiyatning farovonligi uchun taqdim qilayotgan dasturlar yoki xizmatlarda ishlatish uchun qo'shimcha xarajatlarni kamaytirishga e'tiborni qaratadi"<sup>30</sup>.

NNTlari faoliyatining buxgalteriya hisobi bo'yicha me'yoriy asoslar yaratilgan. Ularning ichida 117-sonli "Notijorat tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari" deb nomlangan standard muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu standard notijorat tashkilot tomonidan taqdim etiladigan umumiy maqsadli tashqi moliyaviy hisobot uchun standard va talablarni belgilaydi. Bunda, moliyaviy holat to'g'risida, faoliyat to'g'risida, funksional xarajatlar hamda pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlarni o'z ichiga oladi. Shundan, sog'liqni saqlash va ijtimoiy loyihalarni asosan amalga oshiruvchi tashkilotlar funksional xarajatlar to'g'risidagi hisobotni ixtiyoriy taqdim etadilar, bu xarajatlarni xizmat ko'rsatish harakatlari va notijorat tashkilotlarining yutuqlari bilan bog'lashda foydali hisoblanadi.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda NNTlari uchun moliyaviy hisobot shakllari quyidagilarni o'z ichiga olishini ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. NNTlar uchun moliyaviy hisobot shakllari<sup>31</sup>

Ushbu hisobot shakllari NNTlari tomonidan asosan, yuqorida qayd etib o'tilganidek, tashqi foydalanuvchilar yoki donor tashkilotlar uchun muhim hisoblanadi.

117-sonli "Notijorat tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari" nomli xalqaro standardga ko'ra NNTlarining buxgalteriyasida moliyaviy hisobotlarning to'plami quyidagi hisobot shakllarini o'z ichiga olishi lozim deb ta'kidlab o'tilgan<sup>32</sup>.

<sup>30</sup> <https://corpbiz.io/ngo-accounting> rasmiy ijtimoiy tarmoq ma'lumotlari

<sup>31</sup> <https://www.accountingtools.com/articles/financial-statements-of-nonprofits.html> rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

<sup>32</sup> Statement of Financial Accounting Standards No. 117, "Financial Statements of Not-for-Profit Organizations"

1. Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot;
2. Faoliyat to'g'risidagi hisobot (bayonot);
3. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot;
4. Moliyaviy hisobotga tushuntirishlar.


Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda NNTlarining aktivlari, majburiyatlari, sof aktivlari to'g'risidagi ma'lumotlar, bundan tashqari ular o'rtasidagi munosabatlar hamda ushbu ko'rsatkichlar orqali NNTlarning ma'lumotlaridan foydalanuvchilarga shaffof, ishonchli axborotlarni ta'minlash va tahlilini amalga oshirish uchun yordam beradigan ko'rsatkichlar haqida birlamchi ma'lumotlarni olish mumkin.

NNTlarining moliyaviy ahvoli to'g'risidagi hisobotlarning qiyosiy shaklda taqdim qilinishi, ya'ni, bir necha davrlar uchun, moliyaviy hisobotlar doirasida ma'lumotlarning taqqoslanishi buxgalteriya hisobining **taqqoslanuvchanlik va izchillik (comparability, consistency)**<sup>33</sup> tamoyiliga ham javob beradi.

Ushbu ma'lumotlar, moliyaviy hisobotga eslatmalar bilan birgalikda donor tashkilotlar, kreditorlar va boshqa foydalanuvchilarga NNTlarining hisobot davri faoliyatini, xususan, uning dasturiy vazifalarini amalga oshirish xarajatlarini klassifikatsiyasi va ushbu faoliyatini davom ettirish qobiliyatini, shuningdek, moliyaviy hisobot natijalarini baholashga imkon beradi.

NNTlari uchun moliyaviy hisobotning ikkinchi shakli faoliyat to'g'risidagi hisobot (yoki bayonot) deb nomlanib, NNTning hisobot davridagi daromadlari va xarajatlarini ko'rsatadi. Bunda asosiy e'tibor xayr-ehsonlar orqali jalb qilingan mablag'larning boshqarilishi va sarflanishi bo'yicha ma'lumotlar aks ettiriladi. Bundan tashqari faoliyat turining moliyaviy qoidalarga muvofiqligini ko'rsatadi. Moliyaviy hisob standartlari qo'mitasi (FASB Financial Accounting Standards Board) NNTlaridan belgilangan tartibda sof aktivlari tarkibining o'zgarishi haqida ma'lumotlar(bayonot)ni taqdim etishni talab etadi. Ushbu bayonot orqali moliyaviy rahbarlar moliyalashtirish qayerga yo'naltirilayotganini, NNTning joriy dasturlari va uzoq muddatli moliyaviy barqarrlikka ega bo'lish to'g'risida ma'lumotlar bilan tanishishi hamda rahbariyat qanday dasturlar ishlayotganini, kelajakdagi resurslar qayerga investitsiya qilinishini aniqlashga yordam beradi.

Bunda, xarajatlar tasnifiga ham alohida e'tibor qaratmoq lozim.



2-rasm. NNTlar uchun xarajatlar tasnifi<sup>34</sup>

Tabiiy xarajatlarga NNTlarining faoliyatlarini olib borishga zarur bo'lgan sarflar, ya'ni, kommunal xizmatlar bo'yicha to'lovlar, ijara xarajatlari, ofis jixozlari va saqlash bilan bog'liq barcha xarajatlar kiradi. Funksional xarajatlar esa xarajatlarning qaysi faoliyat uchun yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Bu ham o'z navbatida dasturiy vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, ma'muriy-

<sup>33</sup> Statement of Financial Accounting Standards No. 117, "Financial Statements of Not-for-Profit Organizations"

<sup>34</sup> Statement of Financial Accounting Standards No. 117, "Financial Statements of Not-for-Profit Organizations"

boshqaruv harajatlari hamda mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar guruhlaridan iborat<sup>35</sup>.

FASB (Financial Accounting Standards Board)ning 117-sonli standardiga ko'ra NNTlar o'zlarining funksional xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zlarining moliyaviy hisobot shakllariga izohlarda keltirib o'tishini belgilagan. Biroq ushbu xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobot shakllarining yuzida ham ko'rsatishlari mumkinligi belgilangan<sup>36</sup>.

Xalqaro amaliyotdagi tajribalar natijasidan shakllangan ma'lumotlar asosida NNTlarining funksional xarajatlari to'g'risidagi hisobotni quyidagi shaklda bo'lishini taklif etamiz.

**NNTlarining funksional xarajatlari to'g'risidagi hisobot<sup>37</sup>**

Xarajat nomlari	Tabiiy xarajatlar	Dasturiy vazifalar			Dasturiy vazifalar bo' yicha jami xarajatlar	Qo'llab quvvatlash faoliyati		Qo' llab quvvatlash faoliyati bo' yicha jami xarajatlar
		A loyiha	B loyiha	C loyiha		ma' muriy boshqaruv xarajatlari	Mablag' jalb qilish xarajatlari	

Ushbu jadval ma'lumotlari asosida NNTlarining faoliyati davomida amalga oshiriladigan xarajatlari hisoboti ma'lumotlarini tahlil qilishimiz mumkin. Ushbu hisobot shakli xalqaro umume'tirof etilgan amaliyot talablariga to'liq mos keladi.

Notijorat tashkilotlar uchun tayyorlanadigan funksional xarajatlar to'g'risidagi hisobot boshqa moliyaviy hisobotlar shakllariga qaraganda donorlar va hissa qo'shuvchilar uchun nisbatan foydali hisoblanadi.

NNTlari o'z faoliyatlari bo'yicha pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni ham tayyorlaydi va tegishli tashkilotlarga taqdim etishadi. Xalqaro standartlarga ko'ra NNTlar uchun pul oqimlari to'g'risidagi hisobot tijorat tashkilotlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subektlar tayyorlaydigan hisobot bilan deyarli bir xildir. Unda ham NNTlarining operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat turlari bo'yicha pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari bo'yicha o'zgarishlarni oson tahlil qilish va ma'lumot olish mumkin<sup>38</sup>.

Ushbu hisobot shakllari qonunchilik bilan belgilangan muddatlarda tegishli tashkilotlarga taqdim etiladi. Tashkilotning faoliyati to'g'risidagi hisobotlar shakllantirilgandan so'ng, NNTning moliyaviy rahbari tashkilotning tasdiqlangan budjeti ma'lumotlari bilan taqqoslanadi, bu uning budjet maqsadlariga erishish uchun tezkor tahlil vazifasini bajaradi<sup>39</sup>.

<sup>35</sup> Statement of Financial Accounting Standards No. 117, "Financial Statements of Not-for-Profit Organizations"

<sup>36</sup> Statement of Financial Accounting Standards No. 117, "Financial Statements of Not-for-Profit Organizations"

<sup>37</sup> Statement of Financial Accounting Standards No. 117, "Financial Statements of Not-for-Profit Organizations", <https://www.accountingcoach.com/nonprofit-accounting/explanation/4> va boshqa ma'lumotlar bo'yicha muallif taklifi.

<sup>38</sup> Statement of Financial Accounting Standards No. 117, "Financial Statements of Not-for-Profit Organizations" va [https://www.iitasagroup.com/iitasa\\_nonprofit\\_blog/nonprofit-statement-of-cash-flows/](https://www.iitasagroup.com/iitasa_nonprofit_blog/nonprofit-statement-of-cash-flows/) rasmiy ijtimoiy tarmoq ma'lumotlari

<sup>39</sup> Statement of Financial Accounting Standards No. 117, "Financial Statements of Not-for-Profit Organizations"

**Xulosa va takliflar.**

Xulosa o'rnida ba'zi bir fikrlarni ilgari surishni lozim deb hisoblaymiz. Ilg'or xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, NNTlarining buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga asosan tashkil qilinishi va buning negizida moliyaviy hisobot shakllarining shaffofligi ta'minlanishi ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun muhim sanalgan axborotni taqdim etish imkonini beradi va bu NNTlariga nisbatan donor tashkilotlar ishinchini oshirishga olib keladi. Bundan tashqari quyidagilarni ham ilgari surishlikni taklif etamiz.

Birinchi, xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, NNTlarining aksariyati homiylik manbaalari hisobiga ba'zilar esa donor tashkilotlarning moliyalashtirilishi hisobiga moliyaviy mustaqillikka erishadi va buning natijasida davlatning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim ustuvor vazifalarni amalga oshirilishida jonbozlik ko'rsatadi. Shu sababdan ham xayr-ehson qiluvchi yuridik shaxslarga nisbatan nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini jismoniy shaxslarga ham tadbiiq etish masalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq va bu istiqbolli hisoblanadi.

Ikkinchi, NNTlari asosan loyihalarni amalga oshiradi va xalqaro grandlarda ishtirok etadi. Bunda xalqaro grand ajratuvchi tashkilotlardan doimiy grandlarni jalb qilish uchun, NNTlari tomonidan amalga oshirilgan dasturiy vazifalarni ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni shaffof, tushunarli va sodda shaklda xalqaro buxgalteriya standartlariga muvofiq tayyorlanishi va NNTlar faoliyatiga qiziqayotgan hamda investitsiya kiritish maqsadidagi grand ajratuvchi tashkilotlarga taqdim etish ham muhim richaglardan biri sanaladi. Agar NNTlari tomonidan buxgalteriya va dasturiy vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq hisobot shakllari investorlar uchun tushunarli, sodda va shaffof bo'lishi ularning NNTlarga investitsiya kiritish istagini ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

Qolaversa, xalqaro amaliyotda ijtimoiy yo'naltirilgan NNTlarining o'rni va salmog'i yuqori hisoblanadi. Shu sababdan ham ijtimoiy xizmatlar faoliyatining davlat standartlarini ishlab chiqish qabul qilishga zarurat bugungi kunda mavjud. Agar, ushbu standartlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan taqdirda xalqaro maydonda ham mahalliy NNTlarining nufuzining ortishiga, piravardida xalqaro integratsiyalashuvga ham erishilinadi.

**Adabiyotlar/литература/reference:**

Boronov B. (2020) *Improvement of investment accounting in Uzbekistan.* //DOI: 10:5373/JARDCS/1216/S20201133. Volume 12 | Issue 6. june. Pages: 1069-1079. <https://www.jardcs.org/abstract.php?id=4967>

Eastley D., Maureen O'Hara. (1983) *The economic role of the nonprofit firm* // *The Bell Journal of Economics*. Vol.14. No. 2 (autumn,). P. 531-538.

Jumaboyev A. (2022) "Yoshlar tashkilotlarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, T.:

Robert C., Recket M. (2018) *Information content of IFRS versus GAAP financial statements* // *Journal of financial reporting and accounting*. ISSN 1985-2517. 12 March.

William Jack (2001). *Public Policy toward Nongovernmental Organizations in Developing Countries, Policy Research Working Paper 2639 WB*, July; S. Rose Ackerman. *Altruism, Nonprofits, and Economic Theory*, *Journal of Economic Literature*, Vol. 34, No. 2. (Jun., 1996), p. 714; David Eastley, Maureen O'Hara. (1983) *The economic role of the nonprofit firm* // *The Bell Journal of Economics*. Vol.14. No. 2 (autumn). P. 531-538; Holtmann A.G. (1983) *A Theory of Nonprofit Firms*, *Economica. New Series*. Vol. 50. No. 200 (Nov.), 439-449.

Очилов И.К., Рахматова Ш.Ш. (2020) *Нодалат нотижорат ташиклотлари ҳисоб сиёсати.* //Халқаро молия ва ҳисобот электрон журнали. апрель.

Ташиназаров С.Н. (2018) *Молиявий ҳисоботнинг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш. Монография.* - Publisher SIA Omni Scriptum Publishing. GlobeEdit Publishing house. 280 p. ISBN-13:978- 613-8-24050-1, 87-107-бетлар.